Kalit so'zlar: Strategiya, transport infratuzilmasi, logistika, xizmatlar, mintaq, avtomobil yo'llari, portlar, aeroportlar, temir yo'llar, yuk tashish, transport, tendensiyalar, avtomobil sanoati, raqamli marketing, samaradorlik, texnologiyalar, globallashuv.

Abstract: The article examines the development of Uzbekistan's transport infrastructure within the framework of the "Uzbekistan-2030" strategy and evaluates mechanisms for implementing its strategic objectives. Particular emphasis is placed on enhancing the transport system to meet modern standards and on accelerating integration with international transport corridors across the Central Asian region. The study highlights how improvements in transportation contribute to broader economic development by increasing trade efficiency, connectivity, and regional competitiveness. The expansion of roads, railways, airports, and seaports is analyzed as part of Uzbekistan's efforts to establish itself as a key transit hub in the context of globalization and digital logistics. The proposed measures aim to strengthen the country's transport and logistics capacity, facilitating more efficient cargo transportation and fostering sustainable economic growth.

Key words: Strategy, transport infrastructure, logistics, services, region, roads, ports, airports, railways, cargo, transportation, trends, automotive industry, digital marketing, efficiency, technologies, globalization.

Аннотация: В статье рассматривается развитие транспортной инфраструктуры Узбекистана в контексте стратегии «Узбекистан - 2030» и анализируются механизмы реализации ее стратегических задач. Особое внимание уделено совершенствованию транспортной системы в соответствии с современными требованиями, а также ускорению интеграции с международными транспортными коридорами в Центрально-Азиатском регионе. Исследование подчеркивает роль развития транспортной инфраструктуры в повышении эффективности торговли, укреплении региональной связности и экономической конкурентоспособности. Расширение автомобильных дорог, железных дорог, аэропортов и морских портов рассматривается как часть стратегических мер по превращению Узбекистана в ключевой транзитный узел в условиях глобализации и цифровой логистики. Предлагаемые меры способствуют повышению логистических возможностей страны, обеспечивая более эффективные грузоперевозки и устойчивый экономический рост.

Ключевые слова: Стратегия, транспортная инфраструктура, логистика, услуги, регион, автодороги, порты, аэропорты, железные дороги, грузоперевозки, транспорт, тенденции, автомобильная промышленность, цифровой маркетинг, эффективность, технологии, глобализация.



KIRISH

Mamlakatimizda iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida transport tizimini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada 2022 - 2026 yillarda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham «transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish, transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish» kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarning izchil va samarali bajarilishi mamlakatimizda transport-logistika tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Bugungi globallashuv va mintaqaviy integratsiya jarayonlari sharoitida transport infratuzilmasining rivojlanganligi har bir davlatning iqtisodiy salohiyatini belgilovchi muhim strategik omillardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, geografik jihatdan Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston uchun transport va logistika tarmoqlarining samarali faoliyati mamlakatning ichki va tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish, eksport-import salohiyatini oshirish, mintaqaviy va xalqaro integratsiyaga faol qo'shilish imkonini beradi. O'zbekistonning yirik tranzit salohiyatiga ega bo'lishi uni Osiyo bilan Yevropa, Shimol bilan Janub yo'nalishlarini bog'lovchi tabiiy ko'priikka aylantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida so'nggi yillarda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, multimodal tashish tizimlarini rivojlantirish, xalqaro transport koridorlariga faol qo'shilish borasida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning "ochiq eshiklar" siyosati asosida qo'shni davlatlar bilan do'stona aloqalarni yo'lga qo'yish, strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash hamda tranzit-logistika salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish bugungi kundagi asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Transport infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan eng muhim tashabbuslardan biri bu – xalqaro transport yo'nalishlarini O'zbekiston orqali o'tkazish va yangi transport koridorlarini shakllantirishdir. Xususan, "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" temir yo'li, "Transafg'on" temir yo'l loyihasi, "Toshkent – Andijon – O'sh – Erkin iqtisodiy hudud" avtomobil yo'lagi, "O'zbekiston – Turkmaniston – Eron – Ummon – Qatar" xalqaro multimodal transport yo'lagi kabi loyihalar nafaqat mintaqaviy, balki global ahamiyat kasb etadi. Bu yo'laklar orqali O'zbekistonning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayadi, tashqi savdo hajmi ortadi, investitsion jozibadorlik oshadi va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

Shuningdek, "Yevropa – Kavkaz – Osiyo" (TRACECA), "Shimol – Janub" xalqaro transport koridorlari, "Lapis Lazuli" yo'nalishi kabi tashabbuslar orqali O'zbekistonning xalqaro logistika tarmoqlariga integratsiyalashuvi jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Ushbu transport koridorlari orqali yuk tashish tezligi oshadi, tashish xarajatlari kamayadi va transportda xizmatlar eksporti hajmi ko'payadi.

Mazkur maqolada O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish koridorlarining tahlili, ularning iqtisodiyotga ta'siri, mavjud muammolar va istiqbolli loyihalar tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida ushbu sohani yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Transport infratuzilmasini rivojlantirish masalalari chet ellik olimlarning ilmiy izlanishlarida keng o'rin olgan. Logistika strategiyasini rejalashtirish jarayonlari T. Sivkunova (2012), tijorat tuzilmalarining biznesni tashkil etish tizimidagi logistika A. Kearney (2011), Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining infratuzilma va logistika markazlarini rivojlantirish tajribasini Slatvinska Valeria (2021) tomonidan o'rganilgan.

Temir yo'l transportini rejalashtirishda matematik usullar Belov I. V. (1972), yagona transport tizimlari masalalari Galaburda V. G. (2001) va boshqa rossiyalik olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

O'zbekistonlik olimlardan Samatov G'. A. raqobat muhitida xalqaro transport tizimi faoliyatining logistik ishonchliligini (2003), Ikramov M. A. Buyuk Ipak yo'li bo'yab avtomobil transportini rivojlantirishni (2010), Shermuxamedov A. T. Buyuk Ipak yo'li va zamonaviy avtomobil yo'llarini (2005), Ziyadullayev K. Sh. O'zbekiston Respublikasi transport kommunikatsiyalarining xalqaro transport-kommunikatsiya tizimiga integratsiyalashuvini (2005), Irisbekova M. N. marketing tamoyillari asosida transport xizmatlari bozorini optimallashtirishni (2017), Zohidov A. A. Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirishni (2018), Yarashova V. K. O'zbekiston transport tizimini rivojlantirishning makroiqtisodiy jihatlarini (2022), Fayzullayev J. S. temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirishni (2022), Topildiyev S. R. Markaziy Osiyo davlatlarida transport-logistika tizimini rivojlantirish yo'llarini o'z ilmiy tadqiqotlarida yoritganlar. Biroq, aynan transport tizimini rivojlantirish muammolari umumlashtirilgan ilmiy tadqiqot obyekti sifatida hali to'liq o'rganilmagan.

Transport tizimi har qanday iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Biroq, uning ishlashi jarayonida ish samaradorligi va iqtisodiy ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bir qator muammolar mavjud.



Asosiy muammolardan biri transport infratuzilmasining rivojlanmaganligidir. Yo'llar, portlar, aeroportlar va temir yo'llarning yetarlicha taraqqiy etmaganligi tovarlarni yetkazib berishda kechikishlarga, transportda yo'lda sarflanadigan vaqtning ortishiga va transport xizmatlari narxining oshishiga olib keladi. Yana bir muammo – transport-logistika zanjiri ishtirokchilari o'rtasida muvofiqlashtirishning yetishmasligi, yagona boshqaruv tizimining mavjud emasligi, tovarlarni yetkazib berish bo'yicha to'liq axborotning yo'qligi, mahsulotlarni yetkazib berish jarayonidagi kechikishlar natijasida tovarlarning sifat ko'rsatkichlari yomonlashishi va foyda yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Bu muammolarni bartaraf etish bo'yicha esa hali kompleks ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning metodologiyasi ilmiy va tobora ommalashib borayotgan manbalarni tahlil qilishdan boshlab, tarixiylik, tanqidiy, qiyosiy, mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari, respublikada yangi iqtisodiy siyosatda izchil amalga oshirilayotgan islohotlar, O'zbekistondagi transport-logistika tizimini raqamlashtirish, ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash usullari orqali iqtisodiy tajribalarni amaliyotga joriy etish asosidagi ilmiy tadqiqotlar natijasida shakllangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqa davlatlari bugungi kunda o'zining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini samarali amalga oshirishga xizmat qiladigan barqaror, diversifikatsiyalashgan va integratsiyalashgan transport tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ayniqsa, global bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va eksport-import salohiyatini oshirish uchun boshqa davlatlarning kommunikatsiya tarmoqlari bilan uyg'un ishlaydigan xalqaro transport yo'llari tizimini barpo etish dolzarb vazifalardan biridir. Bunday tizimning mavjudligi mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, logistika xizmatlari sifati va tezligini oshirish, tranzit yuk oqimlarini jalb qilish orqali davlat byudjetiga tushumlar bazasini kengaytirish imkonini beradi.

Transport-logistika tizimi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, tovarlarni yetkazib beruvchidan iste'molchiga yetkazish, ularni saqlash, buyurtmalarni boshqarish, ombor logistikasini tashkil etish kabi keng ko'lami funksiyalarni qamrab oladi. Bu tizim nafaqat tovarlarni manzillarga tez va ishonchli yetkazib berishni ta'minlaydi, balki xarajatlarni minimallashtirish, jarayonlarni optimallashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati oshirish orqali kompaniyalarning raqobatbardoshligini ham kuchaytiradi.

Transport-logistika tizimining asosiy funksiyalari:

Yo'nalishlarni rejalashtirish – yukni yetkazish jarayonida masofa, xarajat, vaqt, xavfsizlik va boshqa omillarni hisobga olgan holda eng maqbul marshrutni tanlash.

Inventarizatsiyani boshqarish – ishlab chiqarish va taqsimotda uzluksizlikni ta'minlash uchun zarur zaxiralarni aniqlash va muvozanatlash.

Omborni boshqarish – saqlash maydonlaridan samarali foydalanish, yuklarni qabul qilish, joylashtirish, harakatlantirish va jo'natish bo'yicha operatsiyalarni muvofiqlashtirish.

Transportni boshqarish – transport turlarini tanlash, texnik xizmatlar, yoqilg'i sarfi va transport holatini monitoring qilish.

Logistika operatsiyalarini optimallashtirish – texnologik yechimlar orqali barcha bosqichlarda samaradorlikni oshirish va isrofgarchilikni kamaytirish.

Transport tizimining samaradorligini baholash va nazorat qilish

Transport-logistika tizimining samaradorligini nazorat qilish va baholash zamonaviy korxona faoliyatining muhim elementidir. Bu borada asosiy ko'rsatkichlar tizimi (KPI – Key Performance Indicators) keng qo'llaniladi. KPI quyidagi parametrlarni qamrab oladi:

yetakzib berish vaqti;

tashish narxi;

xizmat darajasi;

yuk oqimi hajmi.

Mazkur ko'rsatkichlar tahlili logistikadagi muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, jarayonlarni takomillashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, tizimli auditlar, mijozlar fikrlarini tahlil qilish, ichki va tashqi monitoring usullarini qo'llash orqali transport-logistika tizimining real ishlash samaradorligi baholanadi.

Yangi O'zbekistonning 2022 - 2026 yillardagi Taraqqiyot strategiyasida transport va logistika sohasini kompleks rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Xususan:

temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish;

avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish;



tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish;

“yashil koridorlar”ni joriy etish orqali tashqi savdo logistikasi samaradorligini oshirish kabi vazifalar belgilangan.

Shuningdek, “Navoiy” xalqaro intermodal logistika markazi orqali Yevropa va Osiyo davlatlari bilan bog'lanishni kuchaytirish, “Sharq – G'arb” loyihasi doirasida Boku – Tbilisi – Qars temir yo'l liniyasini yanada faol ishlatish va boshqa transmilliy yo'laklar orqali mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish bo'yicha ham amaliy choralar ko'rilmogda.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro do'stona va ishonchli munosabatlar asosida transport infratuzilmasini yaxshilash, yangi yo'nalishlar ochish va logistika xizmatlarini raqamlashtirish borasida hamkorlikni kuchaytirmogda. Ayni vaqtda Qozog'iston mintaqadagi temir yo'l infratuzilmasining 66 foiziga ega bo'lib, umumiy yuk tashishlarning 84 foizini ta'minlamogda. O'zbekiston temir yo'llarining 18 foizini egallab, umumiy tashishlarning 11 foizini amalga oshirmogda. Turkmaniston esa 12 foiz temir yo'l infratuzilmasi va 4 foiz yuk tashishga hissa qo'shmoqda.

1-Jadval. O'zbekiston tashqi savdo yuklarini tashishdagi asosiy transport yo'laklari¹

№	Yo'laklar	
1.	1-yo'lak	Bol'tiqbo'yi davlatlari portlari yo'nalishida (tranzit bilan Qozog'iston va Rossiya orqali) – Klaypeda (Litva), Riga, Liyepaya, Ventspils (Latviya), Tallin (Estoniya)
2.	2-yo'lak	Belarus va Ukraina orqali (tranzit bilan Qozog'iston va Rossiya orqali) – Chop (Ukraina) va Brest (Belarus) chegara o'tishlari, keyinchalik Yevropaga
3.	3-yo'lak	Ukrainaning Ilichevsk portiga (tranzit bilan Qozog'iston va Rossiya orqali), Qora dengizga chiqish bilan
4.	4-yo'lak	Gruziyaning Poti va Batumi portlariga (tranzit bilan Turkmaniston va Ozarbayjon orqali), Qora dengizga chiqish bilan, TRASEKA yo'lagi deb nom olgan
5.	5-yo'lak	Eronning Bandar-Abbos portiga (tranzit bilan Turkmaniston orqali) Fors ko'rfaziga chiqish bilan
6.	6-yo'lak	Sharqiy yo'nalishda Xitoy orqali (tranzit bilan Qozog'iston orqali) Sariq dengizga
7.	7-yo'lak	Sharqiy yo'nalishda Uzoq Sharqning Naxodka va Vladivostok portlari orqali (tranzit bilan Qozog'iston va Rossiya orqali) Sariq dengizga
8.	8-yo'lak	Turkiya va Yevropaga (“Baku-Axalkalaki-Kars”) yangi temir yo'lida tranzit bilan Turkmaniston va Ozarbayjon orqali).
9.	9-yo'lak	Yevropa va Janubiy-sharqiy Osiyo yo'nalishida (Turkiyaning Mersin porti orqali tranzit bilan Turkmaniston va Eron orqali)
10.	10-yo'lak	Xitoy portlariga (tranzit bilan Qirg'iziston orqali) Sariq, Sharqiy Xitoy va Janubiy-Xitoy dengizlariga chiqish yo'nalishi orqali amalga oshirish mumkin

Ba'zi rivojlangan davlatlar so'nggi yillarda iqtisodda proteksionizm siyosatini olib borayotgan bo'lsalar-da (masalan, AQSHning hozirgi hukumati), amalda dunyo iqtisodiyotida globallashtirish jarayoni sekinlashgani yo'q. Dunyo bozorida katta o'zgarishlar nafaqat O'zbekistonning, balki butun mintaqamizning ham ro'y berayotgan o'zgarishlarga tayyor bo'lishini talab etadi. Dunyo hamjamiyatida mavqei o'sib borayotgan Xitoy, Hindiston kabi davlatlarning global iqtisoddagi o'rni ham ortmoqda. Mintaqamizning Osiyoni Yevropa bilan bog'lagan muhim transport koridorining markazida ekanligi biz uchun ham imkoniyat, ham mas'uliyat hisoblanadi. “Bir makon – bir yo'l” kabi loyihalar hamkorlar bilan infratuzilmamizni yaxshilashga, transport va logistikaga aloqador qator sohalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi, shu bilan birga mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobatbardoshlikni oshirish yo'lida sinov bo'ladi.

Respublikamiz mintaqadagi eng yaxshi transport infratuzilmasiga ega. Davlatimiz hududidan 42 530 km avtoyo'l, 4 500 km temir yo'l (har 10 000 km² ga 150 km) o'tadi va mamlakatimizni mintaqaning muhim transport koridorlariga ulaydi. O'zbekistonning tranzit davlati sifatida, ayniqsa, Afg'oniston Islom Respublikasiga (Trans-Afg'on xalqaro transport koridori) kirish va Afg'oniston orqali Bandar Abbas va Chobahor portlariga chiqish imkoniyati Tojikiston Respublikasiga kirish jihatidan ham muhim hisoblanadi. Ahamiyati yildan-yilga ortib borayotgan Andijon – O'sh – Saritosh – Irkeshtom – Qashqar koridori dunyo tarixidagi eng yirik loyihalardan biri bo'lgan va Xitoy Xalq Respublikasi tomonidan taklif qilingan “Bir makon – bir yo'l” (Belt and Road Initiative – BRI) tashabbusida munosib qatnashish hamda Xitoyni mamlakatimiz hududidan o'tuvchi yo'llar orqali boshqa mintaqalar bilan bog'lash imkoniyatini yaratadi. Xitoyning TIR konvensiyasiga qo'shilishi, Qirg'iziston orqali Xitoydan O'zbekistonga avtotransport orqali amalga oshirilgan ilk tranzit tashuvlar davlatimizning transport

¹ Topildiyev S.R. Markaziy Osiyo davlatlarida transport-logistika tizimini rivojlantirish yo'llari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. Elektron jurnal. 1-son. 2024- yil. 514-528 b.



tranzit salohiyatining yuqoriligidan dalolat beradi. Bu salohiyatdan foydalangan holda Turkmaniston orqali Eron va Turkiyaga, Kavkaz davlatlariga, Bojxona Ittifoqi davlatlari orqali Yevropaga chiqish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu imkoniyatlar iqtisodiyotimizda ishlab chiqarish, transport, infratuzilma va turizm sohalarida minglab yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi.

Xalqaro transport-tranzit sohasi, ayniqsa havo transportida yuk tashish eng serdaromad sohalardan biridir. Masalan, Dubay xalqaro aeroporti yiliga 3 million tonnagacha yuk tashib, 26 milliard dollarga yaqin daromad oladi. Qozog'iston Respublikasining Ostona shahrida yillik 1,5 million tonna yuk o'tkazish quvvatiga ega bo'lgan logistika markazini tashkil etish rejalashtirilayotgani ham shundan dalolat beradi. "Navoiy" logistika markazini bunday ko'rsatkichlar bilan solishtirish mushkul, bu sohada raqobat kuchli.

Transport kompaniyalari tomonidan muvofiqlashtirish ishlari yetarli darajada ta'minlanmagani sababli multimodal tashish ham rivojlanmay qolgan. Bojxona tartib-taomillari uzoq davom etishi va transport vositalarining chegaralarda uzoq turib qolishi natijasida yuklarni yetkazib berish muddati cho'zilib ketmoqda.

Mahalliy importchilarda ham o'z yuklarini "Navoiy" logistika markazi orqali qabul qilishga qiziqish sust. Chunki infratuzilma talab darajasida rivojlantirilmagan. Import yuklarning asosiy qismi Toshkent aeroporti orqali kirib kelmoqda.

Shu munosabat bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev neft-gaz tarmog'i mutasaddilariga milliy aviakompaniya va xorijiy yuk tashuvchilarning aviakerosin ehtiyojini o'z vaqtida va to'liq qondirish, haftalik yoqilg'i yetkazib berishni oshirish, bunda jahon bozoridagi narx-navoni hisobga olish yuzasidan topshiriqlar berdi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Prezident lavozimidagi faoliyatining ilk kunlaridanoq Markaziy Osiyoni yagona mintaqa sifatida rivojlantirish ahamiyatini e'tiborga olib, faol mintaqaviy siyosat yuritish, mintaqada qulay siyosiy muhit yaratish hamda O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor tarmoqlaridan biri bo'lgan transport sohasida o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish vazifalarini belgilab bergan.

Mamlakatimizda transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish va tranzit yuk tashish hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi paytlarda mintaqamiz davlatlari xalqaro transport borasidagi imkoniyatlarini kengaytirishga oid sa'y-harakatlarini faollashtirmoqda. Bugungi kunda Markaziy Osiyo orqali qator xalqaro transport yo'laklari tashkil etilmoqda.

2018 - 2025 yillarda Xitoy va G'arbiy Yevropani bog'laydigan "Yevroosiyo" transport yo'lagini qurish va foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Ushbu magistral Pekindan boshlanib, Ostona, Moskva va Minsk orqali Berlingacha davom etadi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 2050 yilga borib ushbu yo'lak orqali yiliga 37 million yo'lovchi tashilishi kutilmoqda.

Yana bir loyiha – "G'arbiy Yevropa – G'arbiy Xitoy". Uning Xitoy – Qozog'iston qismi 2016 yilda ish boshlagan bo'lib, Yevropaga eltuvchi eng qisqa avtomobil yo'li hisoblanadi. Bu yo'lda yuk tashish muddati 10 - 12 kunni tashkil etadi. Loyiha 2030 yilga qadar to'liq ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Yo'lak Sankt-Peterburg – Moskva – Orenburg – Oqto'ba – Olmaota – Qorg'as orqali o'tadi.

Qozog'iston – Turkmaniston – Eron yo'lagida esa 2025 yil may oyida Xitoydan ushbu yo'nalishda konteynerli poyezd harakati boshlangan. Ushbu masofani bosib o'tish uchun 2 hafta vaqt sarflandi, bu dengiz yo'liga nisbatan ikki baravar tezdir. 2040 yilga borib ushbu yo'lakda temir yo'l orqali yiliga 15 million tonna yuk tashilishi kutilmoqda.

"Sharq – G'arb" loyihasi Xitoy va Yevropa o'rtasida transport aloqasini rivojlantirishga qaratilgan. Boku – Tbilisi – Qars temir yo'li ushbu transport yo'lagining muhim bo'g'inidir. Mazkur loyiha Turkiya va Yevropadan Markaziy Osiyo mamlakatlari, Xitoy va Eronga muntazam yuk tashish imkoniyatlarini yaratadi.

O'zbekiston ham ushbu loyihada faol ishtirok etmoqda. Prezidentimizning ***"2018 - 2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida"***gi qaroriga asosan Boku – Tbilisi – Axalkalaki – Qars temir yo'li orqali tashqi savdo yuklarining tranzit tashuvlari boshlangan.

"Shimol – Janub" loyihasi natijasida transport yo'lagi Sankt-Peterburg bandargohini Eronning Bandar Abbas va Chobahor portlari bilan bog'laydi, shu tarzda dengiz yo'li Hindistondagi Mumbay bandargohigacha uzayadi. Ushbu yo'lak Markaziy Osiyo uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Yiliga 3 - 5 million tonna yuk tranzit qilish imkoniyati yaratiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2018 yilda Sindao shahrida bo'lib o'tgan SHHT sammitida O'zbekiston – Mozori Sharif – Hirot, Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'l loyihalarini qurish, shuningdek, Markaziy Osiyo – Fors ko'rfazi, "Shimol – Janub" va "Sharq – G'arb" transmintaqaviy yo'laklarni rivojlantirish tarafdori ekanini ta'kidladi.

Hozirgi kunda jahon ekspertlar hamjamiyatida Xitoy tomonidan ilgari surilgan "Bir makon – bir yo'l" tashabbusining transportga oid qismi bo'yicha keng fikr yuritilmoqda. Fikrimizcha, O'zbekiston ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlashi va unda yanada faol ishtirok etishi maqsadga muvofiqdir. "Bir makon – bir yo'l" tashabbusi, avvalo, savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, jahon aholisining 60 foizi va yalpi ichki



mahsulotining 30 foizi to'g'ri keladigan 65 dan ortiq mamlakat bilan Xitoyni bog'laydigan yangi transport yo'llarini shakllantirishga qaratilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida Markaziy Osiyo mamlakatlarini jahon iqtisodiy, transport va tranzit koridorlariga chuqur integratsiyalashuvi maqsadida BMT shafeligida Transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish mintaqaviy markazini tashkil etish taklifi ilgari surilgan.

Shu maqsadda O'zbekiston transport sohasini strategik rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratib, milliy va mintaqaviy darajalarda transport infratuzilmasini takomillashtirish, xalqaro transport tizimiga integratsiyalashish bo'yicha izchil ishlarni davom ettirmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish joizki, xorijiy davlatlarning bandargohlariga chiqish maqsadida Markaziy Osiyoning transport-tranzit imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha yangi kelishilgan qaror va farmonlarni ishlab chiqish mintaq uchun muhim va dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda transport-logistika tizimini takomillashtirilgan mexanizm asosida shakllantirish uchun quyidagi muammolarni hal qilish zarur:

mahsulotlarni tashish uchun qanday transport turlaridan foydalanish va qisqa muddatda yetkazib berish xaritasini ishlab chiqish;

yuklarni tashish uchun eng maqbul yo'lni aniqlash;

yuk tashish uchun zarur bo'lgan transport vositalari sonini aniqlash;

tovarlarni saqlash va qadoqlash usullarini jahon tajribasi asosida amaliyotga tatbiq etish;

tovarlarni yetkazib berish sifatini nazorat qilish tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lgan transport sohasida konstruktiv va o'zaro manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yish vazifasi, Markaziy Osiyo mamlakatlarining transport-tranzit salohiyatining bugungi holati va uni rivojlantirish istiqbollari, temir yo'l transportini rivojlantirishning xalqaro va mintaqaviy tendensiyalari, avtomobil tashuvlarini takomillashtirish bo'yicha xalqaro hamkorlik, xorijiy tajriba va milliy amaliyot hamda Markaziy Osiyoda havo transporti va tez yurar yuk tashuvchi temir yo'lni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Topildiyev S. R. Markaziy Osiyo davlatlari transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish. Yangi O'zbekiston: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish odimlari. O'quv qo'llanma. 2021 yil. 441 - 650-betlar.
3. Topildiyev S. R. Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik – o'zaro ishonch muhitini yaratishga asosdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish. O'quv qo'llanma. 2021 yil. 96 - 119-betlar.
4. Цыркунова Т. Н. Процесс планирования логистической стратегии // Социология управления и организации: современные подходы: сб. науч. тр. Саратов: Изд-во СГТУ, 2012. С. 29 - 30.
5. Кларнер М. Н. Логистика в системе организации предпринимательской деятельности коммерческих структур: автореф. дис. ...д-ра экон. наук. СПб., 2011. 31 с.
6. Белов И. В. Математические методы в планировании на железнодорожном транспорте: учебник для вузов. 2-е изд., перераб. и доп. М.: Транспорт, 1972. 248 с: ил.
7. Галабурда В. Г. Единая транспортная система: учебник для вузов. 2-е изд. с измен. и доп. М.: Транспорт, 2001. 303 с.
8. Саматов Ф. А. ва бошқалар. Рақобат муҳитида халқаро транспорт тизими фаолиятининг логистик ишончилиги. – Т.: ТошДАУ нашр таҳририяти бўлими, 2003. – 82 б.
9. Икрамов М. А. Развитие автомобильных перевозок по Великому шелковому пути. // Экономическое возрождение России. № 4, 2010. – С. 28 - 36.
10. Зиядуллаев К. Ш. Интеграция транспортных коммуникаций Республики Узбекистан в международную транспортно-коммуникационную систему. // Современные методы организации бизнеса и маркетинга: Межвузовский сборник. – СПб.: СЗТУ, 2005. – С. 101 - 106.
11. Irisbekova M. N. Marketing tamoyillari asosida transport xizmatlari bozorini optimallashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref. – Toshkent, 2017.
12. Zohidov A. A. Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref. – Toshkent, 2018.
13. Yarashova V. K. O'zbekiston transport tizimini rivojlantirishning makroiqtisodiy jihatlar. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref. – Toshkent, 2022.
14. Fayzullayev J. S. Temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref. – Toshkent, 2022.



15. Ziyoda, Mukhamedova; Zakhro, Valijanovna, Ergasheva; D. A., Mukhamedova. On the development of transport infrastructure in Uzbekistan. Nucleation and Atmospheric Aerosols. doi: 10.1063/5.0113484.
16. Slatvinska, Valeria et al. The experience of EU countries towards the development of infrastructure and logistics hubs. Revista de la Universidad del Zulia, 2021.
17. The World Bank: World Development Indicators. URL: <http://data.worldbank.org/indicator>.
18. <https://www.strategy.uz/index.php?news=670>.
19. <https://trueinform.ru/modules.php?name=Laid&sid=66918>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
